

AQLIY RIVOJLANISHDA MUAMMOSI BO'LGAN O'QUVCHILARNI SAVODGA O'RGATISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI

JDPI Maxsus pedagogika kafedrasi mudiri
v.b.dots X.S.Akramova

Maxsus pedagogika, Defektologiya
(Logopediya) mutaxassisligi 1 kurs magistranti
Abdujabborova Mavjuda Baxtiyor qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aqliy nuqsonlari bo'lgan o'quvchilar uchun savodxonlik ishlari orqali o'quvchilarning ta'lif jarayonida muvaffaqiyatga erishishlari kerak bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga ilmiy yondashuvga e'tibor qaratilgan.

Tayanch so`zlar va iboralar: Aqli zaif bolalar, tuzatish, fikrlash, fonemik, savodxonlik, o'qish va yozish, o'quvchilarni tarbiyalash jarayoni, ko'nikmalarni rivojlantirish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning zamirida eng avvalo kelajak avlodning barkamol bo'lib ulg'ayish, hech kimdan kam bo'lmay dunyo arenalarini zabit etishga qodir farzandlar bo'lib yetishishi muhimdir.

Mamlakatimizning dastlabki kunlaridanoq inson huquqlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratildi. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun uzluksiz ta'lif tizimida ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Barcha maktablarda ta'lif jarayoni savod o'rgatish ishlardan boshlanadi.

Savod o'rgatish – bu o'qish va yozishga o'rgatish demakdir. Savod o'rgatish ishlari orqali o'quvchilar ta'lif – tarbiya jarayonida o'qishni muvaffaqiyatlidavom ettirishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikma – malakalar hosil qilinadi.

Savod o'rgatish ishlari o'quvchilarni individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilsa, o'quvchilarni ona tili va boshqa o'quv predmetlarini o'zlashtirishlari uchun muayyan darajada imkoniyatlar yaratiladi.

O'quvchilarda o'qish va yozish ko'nikmalarini hosil qilish uchun o'qituvchidan ilmiy jihatdan asoslangan va tajribalardan o'tgan usullardan mahorat bilan foydalanish talab etiladi.

Qisqa muddat ichida o'quvchilarni o'qish va yozishga o'rgatish uchun o'zbek tilidagi tovushlarga va ularni yozuvda ifoda etish sistemasiga muvofiq keladigan, ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining psixik xususiyatlarini, shuningdek maktabga endigina kelgan bolalarning o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga oluvchi, maxsus muassasaning ta'lif va tarbiya vazifalariga to'liq javob bera oladigan usullar bo'lishi kerak. Bunday usul tarkibiy tahlil usulidir.

Hozirgi zamon tarkibiy – tahlil asosidagi tovush usuli o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirib boorish, tushuncha va dunyoqarashni tarkib toptirish, ma'naviy – axloqiy fazilatlarini tarbiyalab borishni taqazo etadi. Buning uchun

savod o'rgatish ishlarini pedagogic – psixologik fanlar tamoyillari, metod va usullari asosida amalga oshirish talab etiladi.

Bolalarni savodga o'rgatish uchun ularning psixologik xususiyatlari, qiziqishi, imkoniyati, qobiliyati va boshqa ruhiy holatlarini hisobga olish pedagogic faoliyatni samarali amalga oshirish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Savod o'rgatish usuli o'zbek tilidagi tovushlarning fonetik xususiyatlarini, ularni hosil bo'lish mexanizmlarini, bir – biri bilan qo'shib bo'g'in, so'z, gap tuzish qonunlariga va tilda qabul qilingan harf belgilarini yozish ko'nikmasiga to'liq javob berishi kerak.

Savod o'rgatish usullari uzoq yillik tarixga ega. Savod o'rgatishda turli xil usullar ishlatilgan. Shular ichida eng qadimgi usul - bu harflab o'qish usulidir. Bu usul ikki ming yil ilgari vujudga kelgan. Bu usul bilan o'qish va yozishga o'rgatish, o'qish va yozish ko'nikma – malakalarini hosil qilish ishlari to'rt bosqichda amalga oshirilgan.

1. Harflarni, ularning nomlarini yodlash
2. Bo'g'irlarni yod olish va ular ichidagi harflarni nomlab, to'liq bo'g'inni talaffuz etish
3. So'zlarni kitobdan bo'g'inlab o'qish
4. Kitobni sidirg'asiga o'qish.

Darslik o'qitishning asosiy manbai bo'lib, o'quvchilar uchun kerakli ma'lumotlar va topshiriqlarni dastur talablari asosida o'zida mujassamlashtiradi.

Jamiyat taraqqiy etishi bilan ilg'or kishilar ta'lim va tarbiya sohasida hukm surgan formalizmga qarshi yangi fikrlar bilan maydonga chiqib, yosh avlodni tarbiyalashga e'tibor bera boshlaydilar. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashab ijod etgan o'zbek ma'rifatparvarlari Axmad Donish, Muqimiy, Zavqiy, Avaz O'tar, Furqat o'zlarining ilmiy va badiiy asarlarida maktablardagi o'qitishning maqsad va vazifalari, mazmun va usullariga qarshi norozilik bildiradilar. Shu davrlarda rus tuzem maktabining o'zbekcha sinflarida asta – sekin tovush metodini qo'llash asosida savodga o'rgatishga o'tilgan.

Savod o'rgatishda tovush metodining takomillashgan variant K.D.Ushinskiy yaratgan. U bolani har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, o'qish va yozishga o'rgatishda analiz va sintezni birga qo'shib olib boorish zarurligini asoslab bergen.

K.D. Ushinskiyning savod o'rgatish tizimi hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa uning:

1. so'zdan ma'lum bir tovushni topish;
2. Berilgan tovush qatnashgan so'z tanlash;
3. so'zni bo'g'in va tovushga ajratish;
4. tovushlardan so'z tuzish;
5. so'zdagi bir unli yoki undosh tovushni boshqasi bilan almashtirish (don, non, ko'z, kuz, aka, uka)
6. so'zning boshi yoki oxiriga tovush qo'shib yangi so'z hosil qilish (osmon – somon, ko'z – ko'za, tilak - kalit) kabi ish usullaridan hozirda ham keng foydalilaniladi.

Tovushli analiz – sintez metodi K.D. Ushinskiyning shogirdlari tomonidan takomillashtirildi. Metodistlardan A.V.Yankovskaya, S.P.Redozubovlarning ilmiy ishlarida ushbu metodika ilmiy jihatdan asoslanib mukammal ishlab chiqildi. Ushbu metodikaga asoslangan holda sobiq sovet davlatining barcha respublikalarda milliy darsliklar, metodikalar yaratildi.

O'zbek tilida xat – savodga o'rgatish ishlarini takomillashtirishda alifbeshunos O.Sharofiddinov, Faxri Kamol, Y. Abdullaev, O.Omilxonov, Qumri Abdullayeva, X. G'ofurova, T. G'afforova va boshqalarning hissasi katta.

Hozirgi kunda savod o'rgatishda tovush analiz – sintez metodi ao'llanmoqda. Analiz – tahli, sintez – tarkib, biriktirish jarayonlari savod o'rgatish usulining asosidir. Nutqdan gaplarni, gapdan so'zlarni, so'zdan bo'g'lnarni, bo'g'indan tovushlarni ajratib olish, tahli va aksincha tovushlardan bo'g'in, bo'g'nlardan so'z, so'zlardan gap, gaplardan jumla, jummalardan matn tuzish – sintez asosida olib boriladi. O'zbek lotin yozuvida har bir jonli nutqdagi tovushning yozuvdagi mustaqil belgisi harfi mavjud. Ammo so'zlarda tovush bilan harf har vaqt ham mos kelavermaydi. Savodli o'quvchi so'zdagi tovushlarni harfga almashtirib yozadi, o'qiganda esa aksincha harflarni tovushga aylantiradi.

Savod o'rgatish ishlarini to'g'ri uyuştirish uchun tovush bilan harf o'rtasidagi farqni aniq bilish zarur. Tovush bilan harf o'rtasidagi munosabat turlicha bo'ladi. Biroq ba'zi soxalarda tovush soni harf sonidan kam. Yangi o'zbek alifbosida lotin yozuvida 26 ta harf bor, uchta nutq tovushi esa harflar birikmasi bilan ifodalanadi. "Maktab ta'limida o'zbek alifbosida 29 harf bor" ifodasidan ham foydalanish mumkin. Shu harflardan 6 tasi unli tovushlarni, 23tasi esa undosh tovushlarni ko'rsatadi. Unli nutq tovushlarining 5 tasi 5 xil harf bilan ifodalanadi (e ,a, o, i, u, o'). bittasi esa o' harfiga ko'chish belgisini qo'shish bilan ko'rsatiladi. Matnlarda esa harfning o'ng tomoniga yuqori qismi "teskari vergul" ishorasi shaklida bo'ladi. Undosh 18 tovush 18 harf bilan belgilanadi. Yozuvda ikkitasi ikki nutq tovushini bildiradi.

Savod o'rgatishda o'qituvchining dastlabki vazifasi bolalarni tovushlarni bir – biridan ajrata olishga o'rgatish, fonematik eshitishni rivojlantirishdan iboratdir. Bu ishlar turli xil o'qituv vositalari yordamida amalga oshiriladi: rasmlar, shartli belgilar, kesma harflar, bo'g'in so'z, gap jadvallari va boshqalar.

Aqli zaif bolalar ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'lim olmoqdalar. Ushbu turdag'i maktabning o'quv rejasida eng ko'p soat ona tili darslariga ajratilgan. Ona tili darslarida ta'limiy va tarbiyaviy ishlardan tashqari o'qituvchi aqli zaif bolaning bilish faoliyatidagi kamchiliklarini izchillik bilan korreksiyalab, tuzatib borishi lozim. Bu ishlar oligofrenopedagogika fanining tamoyil, usul hamda tashkiliy formalari asosida, oligofrenopsixologiyaga tayangan holda amalga oshiriladi.

Yordamchi maktab o'quvchilari bilish faoliyatining rivojlanish xususiyatlari oligofrenopsixologiya fanida mukammal o'rganilgan. S.Sh. Aytmetovning "Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining psixik rivojlanish xususiyatlari" nomli kitobida aqli zaiflikning yengil darajasidagi o'quvchilarning tafakkuri, idroki, xotirasi, diqqati, nutqi, tasavvuri va bilish faoliyatining boshqa tomonlari batafsil yoritilib berilgan. Muammoning psixologik asoslari B.G. Anan'ev, D.N.Bogoyavlenskiy, L.S.Vigotskiy, V.L.Davidov, F. Talizina, D.V.Elkonin,

S.Ya.Rubinshteyn, L.R.Luriya, V.G.Petrova kabi va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida o'zining aniq ifodasini topgan. Ularning fikricha aqliy rivojlanishida kamchiliklari bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lism – tarbiya ishlarini tashkil etish, takomillashtirish mumkin. Aqli zaif o'quvchilarning bilish faoliyati o'zgacha bo'lsada, uning ichki potentsial imkoniyati baland. To'g'ri tashkil etilgan korreksion rivojlantiruvchi ta'lism – tarbiya jarayonida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilariga mustaqil hayotda zarus bo'lgan hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatish mumkin. Maxsus sharoitda va maxsus usullar bilan olib boriladigan ta'lism – tarbiya ishlari orqalu aqli zaiflikning yengil, o'rta darajadagi bolalarning bilish faoliyatidagi kamchiliklari bartaraf etiladi, psixofiziologik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklari correksiyananadi, bartaraf etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Akramova, H. (2018). Didactic Foundations of Labor Activity for Children with Intellectual Disabilities. Eastern European Scientific Journal, (6).
2. Akramova, X. (2019). Peculiarities of the labor activity of mentally retarded pupils. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(6).
3. Akramova, X. (2020). Методика формирования общих трудовых навыков у умственно отсталых учеников через компьютерные мультимедийные программы. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-7.
4. Akramova, X. (2020). Социально-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Akramova, X. (2020). Замонавий мультимедиа воситаларидан фойдаланиш-муваффакият гарови. Архив Научных Публикаций JSPI, 1-5.
6. Akramova, X. (2020). Коррекционно-педагогические обобенности формирование навыков здорового образа жизни у детей с умственной осталостью в семейных условиях. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Akramova, X. (2020). Aqli zaif oquvchilarda axborot dasturlari vositasida umumiy mehnat konikmalarini shakllantirish metodikasi. Архив Научных Публикаций JSPI.
8. Akramova, X. (2020). Zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanish-muvaffaqiyat garovi. Bola va Zamon jurnal. T, (2-2019).
9. Акрамова, X. С. (2016). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий-педагогик фаолият. Современное образование (Узбекистан), (4).
1. Akramova, X. (2020). Ақли заиф ўқувчиларни компьютер технологиялари асосида меҳнат қўникмаларини шакллантириш. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-9. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4013
2. Akramova, X. (2020). Коррекционно-педагогические обобенности формирование навыков здорового образа жизни у детей с умственной осталостью в семейных условиях. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/918

3. Akramova, X. (2020). Социально-педагогическая работа с детьми дошкольного возраста. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/674
4. Akramova, X. (2020). Didactic Foundations of Labor Activity for Children with Intellectual Disabilities. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/682
5. Akramova, X. (2020). Методика формирования общих трудовых навыков у умственно отсталых учеников через компьютерные мультимедийные программы. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(12), 1-7. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3182
6. Akramova, X. (2020). Methods of developing general work skills in mentally retarded students through information programs. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/697
7. Akramova, X. (2020). Peculiarities of the labor activity of mentally retarded pupils. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/897
8. Akramova, X. (2020). Aqli zaif o'quvchilarda axborot dasturlari vositasida umumiyl mehnat ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/916
9. Akramova, X. (2020). Замонавий мультимедиа воситаларидан фойдаланиш - муваффакият гарови . Архив Научных Публикаций JSPI, 1(12), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3162
10. Akramova, X. (2020). Мактабгача ёшдаги болалар билан олиб бориладиган ижтимоий педагогик фаолият технологияси. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3994
11. Akramova, X. (2020). Mehnat darslarida aqli zaif bolalar nutqini o'stirishning o'ziga xosligi. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4025
12. Muzaffarova, X. (2021). AQLI ZAIFLIK TUSHUNCHASI TALQINIDAGI NAZARIY XATOLARNING SALBIY OQIBATLARI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).
13. Muzaffarova, X. (2020). OQUVCHILAR SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK OYIN VA MASHQLARNI TANLASH TEENOLOGIYASI. Архив Научных Публикаций JSPI.
14. Muzaffarova, X. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. Архив Научных Публикаций JSPI.
15. Muzaffarova, X. (2020). Pedagogik texnologiyalar va ularni maxsus ta'limgussasalariga tadbiq etish. Архив Научных Публикаций JSPI.
16. Muzaffarova, X. (2020). Мактабгача таълим жараёнига мультимедиа технологиясини татбиқ этиш. Архив Научных Публикаций JSPI.
17. Музффарова, Х. Н., & Эгамназаров, М. Ю. (2017). Махсус таълимда болалар интеллекти даражасини аниқлашда психологик-педагогик

эксперимент ўтказиш технологияси. Современное образование (Узбекистан), (7).

18. Тангирова, Д., & Музаффарова, Х. (2014). Нарушения фонетических норм, встречающиеся в речи учащихся, и пути их исправления. Молодой ученый, (20), 738-740.
19. Muzaffarova, X. (2020). ДИДАКТИК ЎЙИН ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ-ПЕДАГОГИК ФЕНОМЕН СИФАТИДА. Архив Научных Публикаций JSPI.
20. Muzaffarova, X. (2020). Логопедик машғулотларда болалар сўз бойлигини ошириш бўйича тавсиялар. Архив Научных Публикаций JSPI.
21. Muzaffarova, X. (2020). Duduqlanish va uni korreksiyalash bo'yicha olib boriladigan logopedik ishlar: Хотин-қизларнинг фан, таълим, маданият ва инновацион технологияларни ривожлантириш соҳасидаги ютуқлари 2019 йил 17-18 май 305 бет. Архив Научных Публикаций JSPI.
22. Muzaffarova, X. O'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari. Bola va Zamon jurnal. T, (2-2019).
23. Muzaffarova, X. (2020). Kar bolalarda og'zaki nutqni shakllantirish. Архив Научных Публикаций JSPI.
24. Temurova, G. (2020). О 'YIN-ESHITISHIDA NUQSONI BO 'LGAN BOLALARNING NUTQIY QOBILIYATLARINI FAOLLASHTIRISH OMILI SIFATIDA. Архив Научных Публикаций JSPI.
25. Muzaffarova, X. (2020). Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan logopedik-korreksion ishlarni to 'g 'ri tashkillashtirish usullari. Архив Научных Публикаций JSPI.
26. Haqberdiyev, J. (2021). MAXSUS MAKTAB-INTERNATDA KOKLEAR IMPLANTLI BOLALARDA NUTQIY MULOQQOTNI SHAKLLANTIRISH. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2).
27. Muzaffarova, X. (2020). Maxsus mакtab internatlarda olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlarning mazmuni. Архив Научных Публикаций JSPI.
28. Muzaffarova, X. (2021). Ақли заиф болаларни ташхислаш ва уни амалга оширишга қўйиладиган талаблар. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1).
29. Axrorova, S. (2021). РАННИЙ ДЕТСКИЙ АУТИЗМ И РАБОТА ПО РАЗВИТИЮ РЕЧИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (2). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1788>
30. Axrorova, S. (2021). ИГРА КАК СРЕДСТВО КОРРЕКЦИИ АУТИСТИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ТЕРАПИИ ИГРОЙ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://matinfo.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/710>